

## IKKI ESHIK ORASI ROMANIDAGI RA'NO OBRAZI VA UNING HIYONATINI VOQEALARGA TA'SIRI

**Tolanboyeva Mohinur Xurshidbek qizi**

*Andijon davlat chet tillari universiteti*

*Xorijiy til va adabiyoti fakulteti*

*rus tili yonalishi 1 - kurs talabasi*

Insoniy qarashlarga, mehr ma'daniyatiga ega bo'lgan oliyjanob o'zbek xalqining turmush tarzini, nasriy chizgilar bilan jonlanishiga sabab bo'lgan asar. Bu asarda qatag'on davridan boshlab 80- yillar oralig'idagi voqealar bayon qilinadi. Asarning e'tiborga molik tomoni shuki unda adib voqealarni har bir qahramon tilidan so'zlatgan. Bu bizga har bir hodisani turli tomondan xuddi 3D grafika kabi, hamma voqeani turli tomondan tahlil qilish imkonini beradi. Asarda to'qqiz qahramonning tilidan yozuvchi xalqning o'tmishini, yakunida urushni urushni qoralab yoritgan. Asar so'ngida qahramonlar ikki eshik orasida qolib ketishadi. Umuman har bir taqdir kirishdan chiqishgacha shu yo'lda ma'lum ma'noda nobud bo'ladilar.

Asardagi Muzaffar menda bebosh qahramon taassurotini qoldirdi, to'g'ri u aqlli, ammo u o'z nafi ustidan go'lib emas. Munavvar esa taqdir Muzaffarga yo'liqtirgan qiz. Asarda menga yoqqan qahramon Kimsan edi. U o'z ahdiga sobit qolib, qahramonlarch halok bo'ldi. Uning ahdini va muhabbatini yoqtirdim. O'zbek onasi obrazida, Qora amma va Robiyani ko'rdim. Ular o'zbek ayoli nomiga munosib bo'lib xotiramda qoldi. Qora amma kelini Ra'noning qilmishini hech ham kechira olmaydi. Asarda Ra'noning taqdiri badbaxtlikka borib taqaladi, u baxtsiz bo'ladi. Umar zakunchining hiylalariga- nayranglariga uchib, imonsizlikni bo'niga oladi. Aslida Umar zakunchi va Ra'nolar bir birlariga munosib qilib yaratildi. Zakunchi shu ayolga ilkishib o'z amalidan judo bo'lgan bo'lsa, Ra'no ahdga xiyonati tufayli, zolim erning qo'lida umr kechirdi.

„ Bolaning uvoli tutgur, imonsiz. Eringni birovdan kam joyi yo'q edi-ku! Eri urushda o'lgan qanchadan qancha gulday juvonlar yuribdi sabr qilib, aqalli bolangni o'ylasang bo'lmasmidi, imonsiz” Qora amma nutqidan. „ Oyim zakunchini gapirishi bilan Ra'no kelinoyim ko'z o'ngimga keldi. Qandoq yaxshi ko'rardim. Nahotki shunday juvon... Qanday sharmandalik” Robiya nutqidan.

„ O'zimku, anavi, qo'ymijoz tabibning itvachchasini amallab tinchitgan edim. Bunisiga balo bormidi! Yuruvdiku bir oydan beri dumini qisib! Nima qilay? Qo'ymadiku anavi Ra'no. Kunora eshigimga keladi „ uylaning” deydi,

yig'laydi, siqtaydi. Ohiri niyati amalga oshmasligiga aqli yetib uyiga ketadi” Umar zakunchi nutqidan.

„Yo'q, uygayug qadam bosolmaydi. Qaysi yuz bilan kelsin?!” Shomurod nutqidan.

Yuqorida biz Ra'no haqida bildirgan salbiy fikrlarni ko'rib o'tdik. Asarda biron bir qahramon uni oqlamadi. Barcha achinish ko'zi bilan qaradi. Qanday hunuk holat. Ra'no or-nomus, izzat-u hayodan oz muddatli lazzatni ustun ko'rdi. Ne umidlar bilan bir yostiqa bosh qo'ygan eriga hiyonat qildi. Bu faqat o'ziga emas, barchaga ta'sir qildi, Xiyonat botqoq kabi Ra'noga qo'shib barchani o'z domiga tortib ketdi. Ha, hiyonat dastlab juda kuchsiz bo'ladi, lekin egasi unga kuch beradi. Uni olovli botqoqga aylantiradi. Va o'z egasini bir umr ichida saqlaydi. Xiyonatkor inson uni o'zidan yulib tashlolmaydi. Xar nafasida qaytib oladi, o'zi o'ziga qarshi bo'lib qoladi. Aynan shu hayotning xiyonatkor insonga bergan jazosi bo'lsa, atrofidagi insonlarning unutmasligi ikkinchi jazosi. Ular o'zlarini qancha ovutmasinlar, xiyonatlari yuzlarida aks etib turadi. Xuddi Ra'no kabi. Shu o'rinda adib bu dunyoning kayf-u safosiga uchmaslikka undaydi. Va har kim qalbiga nazar solib insof bn yashamog'i kerak degan ta'lim tarbiyani berayotgandek tuyiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'tkir Hoshimov. Ikki eshik orasi. Yangi Asr Avlodi. Toshkent 2021.
2. Sayyora Qosimboyeva, Nodira Xoliqova. " Ikki eshik orasi" Romanida Milliy ruhning poetik takomili.